

**JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARNING O'QUVCHILARNI
TARBIYALASH FAOLIYATI**
Qodirov Jo'rabek Mamatismanovich
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash faoliyatining o'ziga xos hususiyatlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: dars, jismoniy tarbiya darsi, sinfdan tashqari ishlar, tarbiyaviy vazifalar, o'qituvchi faoliyati

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ВОСПИТАНИИ
СТУДЕНТОВ**

*Кадыров Жорабек Маматисманович
Докторант Наманганского государственного университета*

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности физкультурной деятельности школьного учителя физической культуры на уроках и во внеурочной деятельности.

Ключевые слова: урок, урок физической культуры, внеклассная работа, воспитательные задачи, деятельность учителя.

ACTIVITY OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS IN EDUCATING STUDENTS

*Kadyrov Jorabek Mamatismanovich
Doctoral student of Namangan State University*

Annotation. This article describes the specific features of physical education activities of school physical education teacher in class and extracurricular activities.

Key words: lesson, physical education lesson, extracurricular activities, educational tasks, teacher's activities

KIRISH. O'zbekiston Respublikasining kelajakda buyuk davlat darajasiga ko'tarishda sog'lom avlodni tarbiyalash asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining jismoniy tarbiya va sportga ta'lluqli bir qancha qarorlari yoshlarga jismoniy tarbiya berishda yangi yo'naliishlarni ochib berdi. Bu esa o'z navbatida kadrlar oldiga yangi talablarni qo'ydi. Ya'ni jismoniy tarbiya kasbiga qo'yiladigan kasbiy talablarni yanadi takomillashtirishni talab etadi. Chunki, umumta'lim maktabalarining jismoniy tarbiya dasturini yanada takomillashtirish, futbol, milliy kurash, tennis kabi sport turlari o'quv dasturiga kiritilishi bu soxaga yangicha e'tibor berishni taqozo etadi.

O'qituvchining funksional – ma'lumotini tahlil qilinganda uning professional tayyorligi mifik – ma'lumotini tahlil qilinganda uning professional tayyorligi maktab o'qituvchilarini jismoniy tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan mazmuni yanada to'laroq ochiladi. Bu mas'uliyat unga pedagogik faoliyatining maxsus talabini yuklaydi. Ularning bir qismi me'yoriy xujjjatlar bilan belgilangan, shuning uchun ularni bajarilishi majburiy deb qaralishi kerak: ikkinchi qismi esa majburiylikdan tashqariga chiqadi. Ular o'qituvchining ijtimoiy va jismoniy tarbiya hamda sport vositalari yordamida tarbiya faoliyati bilan bog'langan.

Ma'lumki, bunday tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish oliy o'quv yurtida o'quv-tarbiya jarayonining barcha zaxiralaridan foydalanishni, kelajakdag'i o'qituvchi-tarbiyachining extiyoj-motivatsion soxasini shakkantirishning ko'proq asoslangan tayyorgarligini talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИI

R.Xelmanning (1975) fikricha, sport pedagogikasi shaxsning sport orqali rivojlanishini maqsadli, tushunarli va rejali o'rganishi va ta'minlashi lozim. X.Shvidman (1976) ta'kidlashicha, sport pedagogikasi predmeti bu sport faoliyatidir (ayniqsa, sport yutuqlariga erishish faoliyati). Bu sportchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida qilinadigan qiyin va serqirrali jarayon bo'lib, maktab, ishlab chiqarish va oiladagi tarbiyaviy jarayonlardan farqli, o'z xususiyatlari egadir. Sport pedagogikasi mana shu xususiyatlarni ko'rsatib, nazariy tomonidan ifodalaydi. U.Noyman (1975)

ta'kidlashicha, sport pedagogikasi boshqa har qanday pedagogika fanlari kabi differentsatsiyalanish ob'ektiv jarayoni bo'lib, jamiyat extiyojiga aylangan. L.Paul (1979) sport pedagogikasini faoliyatidan kelib chiqib, uni sport fanlari qatoridagi o'rni va oldiga qo'yiladigan vazifalarni ifodalaydi. Avtor, sport pedagogikasini rivojlanish bosqichlari jamiyat ehtiyojlari talablariga mosligidan kelib chiqib, uning fan sifatidagi predmetini aniqlashni taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYaSI

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan faydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'qituvchilarni jismoniy tarbiya bo'yicha ishlarda maktabning butun pedagogik jamoasi. Direktor, uning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha muovini, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha muovini, sinfdan va mактабдан ташқари ишларнинг ташкilotchisi, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, boshlang'ich xarbiy tayyorgarlik rahbari, sinf rahbarlari, o'qituvchilar, kuni uzaytirilgan guruxlardagi tarbiyachilar ishtirok etadilar. Ularning bilimdonligi, tashabbuskorligi va muvofiqlashtirilgan ishlardan, o'quvchilarning jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishi, ularning funksional imkoniyatlarining kengayishi, aqliy va jismoniy mehnatga layoqatlilagini o'sishi, salomatligining mustaxkamlanishi, ularda axloqiy va iroda sifatlarini tarbiyalanishiga bog'liq.

O'qituvchilarning muvaffaqiyatli ilm olishlari uchun sharoit yaratish, ularni xayotga, mehnatga, ongli ravishda kasb tanlashga, vatanni ximoya qilishga tayyorlashdir.

Maktabning o'quv-tarbiya jarayoniga jismoniy tarbiyani faol kiritish, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni shakllantirishga imkon beradi. Bunda o'qituvchiga umuta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlar tizimi bo'yicha tavsiyalar yordam beradi. O'quvchi shaxsini rivojlanish va majmuali tarbiyalashga yo'naltirilgan bu tarbiyalar mактаб, oila va jamoatchilik bilan birgalikda ta'sir o'tkazadigan tarbiya tizimining ta'sirli harakatini barpo etishga xamkorlik qiladi, hamda yangi avlod va kamolot kabi yoshlar tashkilotlarini etakchi va tashkilotchilik vazifalarini oshiradb hamda o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishlarini faollashtiradi.

O'quvchilar jismoniy tarbiyasida uchta asosiy vazifalar guruxini ajratish mumkin, sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy, ular bolalarning yoshi, jinsi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olib bajariladi.

Sog'lomlashtirish vazifasi. Organizmni gormonik rivojlanishiga va uni asta-sekin ko'payib boradigan yuklamaga tayyorlashga yo'naltirilgan; jismoniy qobiliyatlarni mazkur yoshdag'i o'quvchilar uchun rivojlanishini ta'minlovchi tashqi muxitning noxush ta'siriga, jismonan charchashga nisbatan, organizmni yuqori barqarorligini ta'minlash. Sog'lomlashtirish vazifalarini yoki o'quvchilarning o'zlarini mustaqil (ota-onalar rahbarligida) me'yoriy jismoniy rivojlanishga yordam beradigan maxsus uslub va vositalarni tanlash yo'li bilan, yoki ta'lim va tarbiyaviy ishlarni birga qo'shib olib borish bilan bajarishlari mumkin.

Ta'lim-vazifalari. O'quvchilar jismoniy tarbiya soxasidagi bilimlar, mahoratlar va ko'nikmalarni xayotning xilma-xil sharoitlarida foydalanish uchun egallahsga yo'naltirilgan. Bu erga jismoniy mashqlarning usullari, qoidalari va sharoitlarni hisobga olgan xolda muvaffaqiyatli bajarish, organizmga ta'siri va ahamiyati xaqida bilish kiradi.

O'quvchilar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari va mashg'ulotlari Kun tartibida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish tadbirlari Kuni uzaytirilgan va to'liq kunli mактаблarda, mактab internatlarida o'tkaziladigan sog'lomlashtirish tadbirlari O'quv ishlab chiqarish amaliyoti davomida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish tadbirlari

Jismoniy tarbiya darslari Mashg'ulotgacha o'tkaziladigan gimnastik mashg'ulotlar
Ertalabki gigienik gimnastika Kirish gimnastikasi

Maxsus tibbiy guruxga kiritilgan o'quvchilar bilan o'tkaziladigan darslar Darslar da ga
jismoniy tarbiya daqiqalari Vazifalarni bajarish vaqtida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalari
Jismoniy tarbiya daqiqalari

Oilada, mактablarda poliklinikalarda o'tkaziladigan davolash jismoniy tarbiya mashg'ulotlari Kun tartibida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar jismonny mashqlar va sport soatlari Darslarga tayyorgarlik davomidagi jismoniy tarbiya daqiqalari Sport to'garaklari

Sport musobaqalari Katta tanaffuslarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar O'zlarini mustaqil o'ynaydigan milliy o'yinlar Sport musobaqalari
Sport soatlari

1-chizma. Kuni uzaytirilgan guruh o‘quvchilari jismoniy tarbiyasining tashkillashtirish shakllari

Keng doiradagi xayotiy zarur ko‘nikmalar va mahoratni shakllantirish o‘quvchilarni harakatlantiruvchi tajribani boyitish ongli boshqarishni kuchaytirish harakatlarni o‘z vaqtida bajarilishini uddalashni shakllantirish. Ta’lim vazifalari bolalarda shaxs va ijtimoiy gigiena va boshqa ko‘nikmalar xaqida hamda ularga mакtabda, uyda, mashg‘ulot vaqtlarida rioya qilish xaqidagi madaniyat soxasida fikrlash darajasini kengaytirishga, bu soxada bilish faoliyatini oshirishni jismoniy mashqlar sport va sayyoxlikka bo‘lgan qiziqish va extiyoyjlarni rivojlantirishni, o‘zini jismoniy takomillashtirishga intilishini mo‘ljallaydi. Ta’limiy vazifa, shuningdek jismoniy mashqlar mashg‘ulotlarini va jismoniy sport tadbirlarni o‘tkazish uchun tashkilotchilik va uslubiy bilim (instruktorlik, xakamlik) va mahoratni shakllantirishni xam mo‘ljallaydi.

Sinfdan tashqarida olib boriladigan jismoniy sog‘lomlashtirish tadbirlari Oilada jismoniy tarbiya Maktabdan tashqarida o‘tkaziladigan jismoniy sog‘lomlashtirish tadbirlari

Jismoniy tarbiya to‘garaklari va umumiyy jismoniy tayyorgarlik guruxlarida jismoniy tarbiya Kun tartibiga rioya qilish va gigienik tadbirlarni bajarish BO‘SM va maxsus sport sinflaridagi mashg‘ulotlar

«Alpomish» va «Barchinoy» guruxlaridagi mashg‘ulotlar Ertalabki gigienik gimnastika Madaniyat saroylarida o‘tkaziladigan sho‘ba mashg‘ulotlar

Sport sho‘balaridagi mashg‘ulotlar Jismoniy tarbiya daqiqalari, sport va harakatli o‘yinlar Bolalar turistik sho‘balaridagi mashg‘ulotlar

Sayyoxlik yurishlar va ishlar Jismoniy tarbiya bo‘yicha uy vazifalarini bajarish S p o r t saroylari, suv xavzalari, madaniyat va dam olish parklarida, stadionlar yonida tashkil etilgan gurux va sho‘balardagi mashg‘ulotlar

Sport musobaqalari va bayramlar Ochiq xavoda sayr qilish va o‘yinlar Maxalla va shirkatlarda tashkil qilingan gurux va sho‘balardagi mashg‘ulotlar

Sport va sog‘lomlashtirish kunlari Qiziqishi bo‘yicha jismoniy mashqlar bo‘yicha mustaqil mashg‘ulotlar Bolalar sport jamg‘armasi qoshida tashkil qilingan sho‘balardagi mashg‘ulotlar

«Quvnoq startlar» musobaqalari Ota-onalar bilan birga jismoniy sog‘lomlashtirish tadbirlarida qatnashish Yozga bolalar oromgoxida mashg‘ulotlari

2-chizma. Jismoniy tarbiyaning sinfdan va maktabdan tashqari hamda oiladagi shakllari.

Tarbiyaviy vazifalar tarbiyaning jismoniy tarbiya va boshqa yo‘nalishlari bilan o‘zaro bir-birining uzviy bog‘likligidan kelib chiqadi. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasini o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan majburiy shakllari quyidagilarni tashkil etadi: jismoniy tarbiya dasturlari; kuni uzaytirilgan va o‘quv rejimida jismoniy sog‘lomlashtirish tadbirlari (mashg‘ulotgacha o‘tkaziladigan gimnastika, darslardagi jismoniy tarbiya daqiqalari, katta tanaffusdagi o‘yinlar va jismoniy mashqlar, kuni uzaytirilgan guruxlarda jismoniy tarbiya mashqlari).

Maktablar uchun sinfdan tashqarida olib boriladigan ommaviy sport turlarini majburiy shakllari: jismoniy tarbiya to‘garaklari, umumiyy jismoniy tayyorgarlik guruxlari, «Alpomish va Barchinoy» guruxlari sog‘lomlashtirish va sport to‘garaklaridagi mashg‘ulotlar, sport musobaqalari, sayyoxlik yurishlari.

XULOSA

O‘quvchilarining o‘zлari tanlangan mashg‘ulotlari. Maktabdan tashqari ommaviy ishlari (yashash joylarida, bolalar va o‘smirlar sport maktablarida, o‘quvchilar saroylarida yosh turistlar stansiyalarida, sport jamoalarida, mahallalarida, maktab va xovli maydonchalarida, o‘yingoxlarida, istiroxat bog‘larida mustaqil jismoniy mashg‘ulotlar va boshqalar).

Jismoniy tarbiya tizimining ta’sirchanligi birinchи navbatda barcha o‘quvchilarni jismoniy tarbiya sport va sayyoxlik bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning xilma-xil shakllariga jalb etish, ularning nazoratini olib borish, o‘quvchilarni kundalik xayotida jismoniy mashqlarni maksimal joriy etish bilan tavsiflanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati

1. Узбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Конуни. (1997. 29 август). Туркистон. –Тошкент, 1997. 30 август.

2. Узбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Конуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. –Тошкент, 2015. 5 сентябр.

3. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. –Фарғона: 2001. -279 6.